



YANGI O‘ZBEKISTONDA BO‘LAJAK PEDAGOGLAR INTELLEKTUAL MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURIYATI

Qurbonov J.A.

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti
dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Tayanch soʻzlar: boʻlajak pedagoglar, intellektuallik, madaniyat, aqliy qobiliyat, gnoseologik.

Ключевые слова: будущие педагоги, интеллектуальность, культура, умственные способности, эпистемологический.

Key words: future pedagogues, intellectuality, culture, mental ability, epistemological.

Резюме:

Boʻlajak pedagoglar intellektual madaniyatini insonning aqliy qobiliyatiga asoslangan gnoseologik faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash, intellektual qadriyatlar yaratish malakalari, bilish manbalari hamda informasion-texnikaviy vositalar bilan ishlay olish qobiliyati boʻlib, uning boʻlajak oʻqituvchilar intellektual madaniyati innovasion bilimlarni egallash imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Резюме:

Интеллектуальная культура будущих учителей – это способность определять цели и задачи эпистемологической деятельности на основе умственных способностей человека, навыков создания интеллектуальных ценностей, умения работать с источниками знаний и информационно-техническими средствами, а также интеллектуальная культура будущего учителя. Учителя – это способность приобрести инновационные исследовательские знания.

Summary:

The intellectual culture of future teachers is the ability to determine the goals and tasks of epistemological activity based on human mental abilities, the skills of creating intellectual values, the ability to work with knowledge sources and information-technical tools, and the intellectual culture of future teachers is the ability to acquire innovative knowledge.

Mamlakatimizdagi demokratik islohotlar sinov va yangilanishlar davri boʻlayotgan vaqtda, milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash bilan birgalikda, yosh avlodni intellektual madaniyatini yuksaltirishga, shuningdek, barkamol avlodni fanning ilgʻor gʻoyalari bilan tarbiyalashga eʼtibor berilmoqda.

Yangi taraqqiyot bosqichida ilmiy-texnika inqilobi hosilasi boʻlmish axborotlar, yaʼni gʻoyalar toʻqnashuvi natijasida, xalqimiz tafakkurida

yuz beruvchi turli xil o'zgarishlarning keskin salbiy oqibatlarini, ya'ni turli mafkuraviy tahdidlar va buning natijasida hosil bo'luvchi tafakkur inersiyasi va marginalizmdan himoyalash, shaxs va jamiyat intellektual madaniyatini muqobil yuksaltirishning muhim usul va vositalarini yaratish, o'ziga xos mexanizmlarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

UNESCO tashkilotining hisobotiga e'tibor bersak, isroilliklar eng ko'p ilm-fan, tadqiqot bilan shug'ullanadi. Isroilda to'liq ish soati ekvivalenti hisobida har bir milliondan 8250 kishi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar bilan band. Keyingi o'rinlarda esa Daniya (7515), Shvesiya (7153), Janubiy Koreya (7113) va Singapur (6730) turadi. Lekin shunday bo'lsa-da, aholisi jihatdan ko'p bo'lganligi sababli umumiy hisobda ilm-fan bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchi va olimlari eng ko'p bo'lgan mamalakatlariga Xitoy, AQSH, Rossiya kiradi. O'zbekistonda esa to'liq ish soati ekvivalenti hisobida har bir million kishiga 496 nafar tadqiqotchi va olimlar to'g'ri keladi. Bu esa mamlakatimizda yoshlarni ko'proq ilmiy faoliyatga jalb etishni taqazo qiladi.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash sohalari tarkibiy tuzilishi loyihasida bo'lajak o'qituvchilarni salohiyatiga e'tibor qaratilmoqda.

Respublikada ilmiy va innovasion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash va isloh qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda, iqtidorli yoshlarni nufuzli milliy va xalqaro musobaqalarda hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Taraqqiyotning yangi davrida shaxs va jamiyat, ayniqsa bo'lajak o'qituvchilarning intellektual madaniyatini yuksaltirishga e'tibor berish obyektiv zaruriyatdir. Negaki, hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti munosabatlari modernizatsiyalashuvi muammolaridan biri hisoblangan yoshlarning intellektual madaniyat darajasi bilan jamiyat rivojlanishini o'zaro uyg'unligi, bir biri bilan ta'sirlashuv xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy va madaniy jihatdan tadqiq etish, mutaxassis-kadrlarni zamonaviy ilm-fanning ilg'or yutuqlarini amaliyotda qo'llay oladigan yuksak ilmiy salohiyatga ega bo'lgan ziyoli inson sifatida tarbiyalash jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

O'zbek xalqi taraqqiy etgan fuqarolik jamiyati sari borar ekan bu borada shaxs va jamiyat intellektual madaniyatini oshira borish hamda undan oqilona foydalanish eng dolzarb vazifadir. Demokratik islohotlar natijasida mazkur masalani ijobiy xalq etish yuzasidan an'anaviy-ma'rifiy tadbirlar va loyihalar ijtimoiy hayotga tadbiriq etildi. Xalq kelajagi, uning farovonligini ta'minlash, shaxs va jamiyat intellektual madaniyatni rivojlantirish uchun qanday yo'llardan foydalanmoq lozimligiga aniqlik kiritildi.



Birinchiidan, jamiyatdagi mavjud intellektual madaniyat subyektlarini ham moddiy ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab va rag'batlantirib borish, ularning jamiyatda tutgan rolini oshirish hamda ilmiy va ijodiy faoliyatlari uchun keng imkoniyatlar yaratishdir .

Ikkinchiidan, ziyolilar qatlamini rivojlangan davlatlarning ilmiy-texnikaviy salohiyatidan bahramand bo'lishiga erishish, global miqyosda davom etayotgan fan-texnika inqilobining yangidan yangi cho'qqilarini egallashiga imkon yaratishdir. Istiqbolda sivilizasiyasi yuqori bo'lgan davlatlar bilan barcha sohalarida tengma teng raqobat yurgizish asosiy maqsadlardan biri ekan, demak, jamiyatning intellektual darajasi ham shunga muvofiq bo'lishi lozim. Bu borada Innovasion rivojlanish vazirligi huzurida tashkil etilishi rejalashtirilgan Yoshlar akademiyasi ham ilm-fan vakillarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Ushbu akademiyaga innovasion fikrlaydigan iqtidorli talabalar va 40 yoshgacha bo'lgan olimlar, tashabbuskor yoshlar a'zo bo'ladi. Akademiyada sun'iy intellekt, qayta tiklanadigan energiya manbalari, robot texnikasi va mexatronika, farmasevtika, biotexnologiya, dasturlash, sanoat dizayni, 4D modellashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib boriladi. Oliy ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash jarayonini yanada jadallashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Mazkur hujjatlar ijrosi doirasida oliy ta'lim muassasalarining yirik ishlab chiqarish korxonalari, davlat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari bilan hamkorligi yo'lga qo'yildi. Natijada tashkilot va korxonalarining 4 mingdan ortiq malakali amaliyotchi-mutaxassislari oliy o'quv yurtlarining ta'lim jarayoniga jalb etilgan1.

Uchinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni intellektual yetuk shaxs bo'lib yetishishlari uchun xalq ta'limida, oliy va o'rta maxsus o'quv dargohlarida jahon standartlari darajasida bilim berish, oliy o'quv yurtlarida malakali mutaxassislar tayyorlashni keng yo'lga qo'yish va o'z navbatida talabalar, magistrantlar va murabbiylarni chet ellarga o'qishga hamda malaka oshirishga yuborish uchun yanada keng imkoniyatlar yaratildi.

Bunday madaniy-ma'rifiy tadbirlar intellektual madaniyat egalarini bilim va tajribalarini yuksaltirishda o'z samarasini beradi.

Mamlakat hayotida ma'naviy madaniyatni yanada yuksaltirishga bo'lajak intellektual salohiyat egalari bo'lmish yoshlarni tarbiyalash va ularni ilm ma'rifat olishlari uchun munosib shart-sharoit yaratib berish davlatimizni strategik maqsadi hisoblanadi. Jamiyatda uchraydigan mahalliychilikni bartaraf etishning usul hamda vositalarini ishlab chiqishda ham samarali yo'llarni tanlash intellektual madaniyat egalari tomonidan olib boriladi.

XXI asrda ilm-fan, intellektual salohiyat taraqqiyot mezoniga aylanib, tobora yuksak bosqichga chiqmoqda. Istiqbolda shaxs va jamiyat intellektual madaniyatini rivojlantirish vositalari sifatida kompyuter texnologiyalari, zamonaviy innovasion texnologiyalar, san'at, badiiy va ilmiy-ma'rifiy adabiyotlar, ilm fan sohasidagi innovasion ixtirolarni olishimiz mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida o'sib borayotgan aqliy, intellektual salohiyat va raqobat ularning bilim darajasini belgilab beradi. Hozirgi kommunikasiya davrining o'ziga xos xususiyati, uning raqobat asriga kirganligidir.

Kompyuter texnologiyalarining globallashuv sharoitida hayotimizning barcha jabhalariga muttasil kirib borishi, undagi internet tizimi vositasida jahon ilm fani yangiliklarini kirib kelishi istiqbolda yetuk ziyolilar qatlamini shakllanishida muhim turtkilardan biri bo'ladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5349-sonli Farmoni, 2018 yil 19 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» PQ-3549-sonli qarori, shuningdek, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallarida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish, o'quv jarayoniga ta'limning kredit tizimini joriy qilish orqali universitetni jahonning 1000 ta nufuzli universitetlari qatoriga kirishini ta'minlash maqsadidagi qarori ham muhim ahamiyatga egadir.

Kompyuter texnologiyalari ta'sirida fan inqilobi va axborotlashuv tufayli o'qish, o'qitish ishlarining samaradorligi yanada oshirilib, jamiyatdagi ijtimoiy intellekt o'ziga hos tarzda rivojlantirilmoqda.

Islohotlar natijasida sun'iy intellekt sifatida e'tirof etilayotgan kompyuter texnologiyalari kishilarning ma'naviy-madaniy intellektuallik darajasini yuksaltiruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuni nazarda tutgan holda hozirda internet, multimediya, kosmonavtika, ommaviy axborot vositalari, uyali, radio va sun'iy yo'ldosh aloqasiga asoslangan axborot tizimini rivojlantirishga aloxida e'tibor berilmoqda. Ya'ni, intellektual madaniyatni rivojlantiruvchi vositalardan biri sifatida kompyuter texnologiyalari insoniyat tafakkur taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Sababi o'z aqliy va individual tafakkur imkoniyatlaridan ko'ra ko'proq sun'iy intellektga suyanish va faqatgina u orqali axborotga ega bo'lish insonni fikrlash doirasini muttasil cheklab boradi hamda intellektual madaniyatini sun'iy axborot qobig'iga o'rab qo'yadi. Shuning uchun shaxs intellektual madaniyatini oshirishda boshqa



vositalarga ham aloxida ahamiyat bermoq lozimdir. Fan yutuqlari inson yaratgan ma'naviy qadriyatlarning eng oliysi bo'lib, u o'ziga xos tarzda taraqqiy etmoqda. O'z navbatida bu jarayon kishilarning intellektual madaniyatini yanada rivojlantirib, ularning rasional bilimlarini miqdor va sifat darajalarining tobora oshib borishida vosita sifatida hozirgi davr jahon sivilizasiyasining yangi bosqichga o'tishi uchun zamin yaratadi.

Shaxs intellektual madaniyatini rivojlantirishda yana bir muhim vosita bu badiiy va ilmiy ma'rifiy adabiyotlardir. Darhaqiqat u hoh badiiy asar bo'lsin, hoh ilmiy ma'rifiy asar bo'lsin barchasi shaxsni o'zligini tanishga, bilim va dunyoqarashini kengaya borishida zarur ahamiyat kasb etadi. Aynan mazkur omillar ta'sirida inson ma'nai shakllanish bilan intellektual jihatdan yuksala boradi. Zamonaviy adabiyot va san'at asarlari shaxsni ma'naviy dunyosini boyitish, uni go'zal voqealarning estetik jihatlaridan baxramand etish kabi xususiyatga ega. Ma'naviy g'oyasi yuksak badiiy jozibador adabiyot va san'at asarlari kishilar qalbiga tezroq yo'l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta'sir qilish va hayotiy voqea-hodisalarni teran mushohada etishga undash vositasida shaxs intellektual madaniyatining rivojiga muhim turtki beradi. Adabiyot va san'at asarlarining yana bir e'tiborga molik jihati shuki, ular inson ongi va tafakkurida yangidan yangi fikrlar hamda plyuralistik g'oyalar vujudga keladi. O'zbek xalqining: Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi klassik adabiyot namoyondalari hamda zamonamiz yozuvchi va shoirlari bilan bir qatorda chet el adiblarining o'lmas ma'naviy meroslaridan bugungi kun yoshlarining yetarli darajada baxramand bo'lishi istiqbolda ma'naviy barkamol, yuksak intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalaydi.

Shuningdek, ilmiy-ma'rifiy adabiyotlar ham shaxs intellektual salohiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va bu orqali uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi. Respublikamizda shaxs va jamiyat tafakkur tarzini va bilim darajasining taraqqiy topib borishi, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning mohiyatini anglab yetishi uchun foydali bo'lgan ilmiy-ma'rifiy adabiyotlar hajmini oshirish, ularni kishilar hayotiga yanada chuqurroq va kengroq kirib borishiga zaruriy imkoniyatlar yaratish xozirgi kunda maorif hamda ilmiy tadqiqotlar sohasidagi eng muhim nazariy va amaliy ahamiyatdagi ega vazifadir. Mazkur vazifa doirasida turli xorijiy tillardagi ilmiy adabiyotlarni o'zbek tiliga tarjima qilish va bu orqali xorijiy faylasuf olimlarning ilmiy-ijodiy ishlari bilan yoshlarimizni tanishtirish lozim.

Shaxsning ijtimoiy hayotdagi yutuqlari va teng ravishda omadsizligi uning ma'naviy va axloqiy ahvoriga muvofiqdir. Inson hayotining turli bosqichlarida



namoyon bo‘luvchi ma‘naviy tanazzul ko‘p hollarda uning haddan tashqari oshib ketgan va keraksiz ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolaridan kelib chiqadi. Insonga ko‘p iste‘dodlar berilgan, u o‘z ehtiroslariga intilishga harakat qiladi. Ammo, o‘z tug‘ma hislatlari va ehtiyojlarini aql-idrok talablariga, shu jumladan o‘z-o‘ziga muhabbatni, manmanlikni bo‘yso‘ndirishdan ko‘ra insonga qiyin narsa yo‘qdir. Shuning uchun ham biz tug‘ma ruhiyatni jilovlash uchun qo‘shimcha kuchlar sarflashimiz lozim bo‘ladi, negaki biz o‘z aql-idrokimiz va muomala tarzimizni takomillashtira olmaymiz. O‘z-o‘zimizni nazorat qilmay turib biz munosib turmush tarzini yurgiza olmaymiz.

XXI asr insoniyatdan fan-texnika taraqqiyotini yangicha sifat bosqichiga ko‘tarishni talab qilmoqda. Bizningcha esa mana shu talab doirasida zarur bo‘lgan tafakkur islohotlarini jadallashtirish, o‘zimizda sog‘lom extiyojlarni shakllantirishimiz natijasida har qanday rivojlanish holatidan qoniqmaslik paydo bo‘ladi. Ya‘ni, mavjud vaziyatdan qoniqish turg‘unlikni yuzaga keltiradi. Insonni o‘zida yangi ehtiyojni xosil bo‘lishi taraqqiyot manbaidir. Hozirgi davrda aqlan zukko, kreativ qobiliyatli, izlanuvchan va mustaqil muloxaza yurituvchi yoshlar jamiyatni ilmiy texnik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi ulkan kuch quvvat bo‘lib ular kelajakda barcha sohalarda jahon hamjamiyati bilan integrasiyalashuvi lozim bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan muammoga yondashuv iste‘dodli yoshlarni izlab topish muayyan yo‘nalishga yo‘naltirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Chunki, ularning har qaysisiga hos bo‘lgan individual xususiyatlar, yashirin imkoniyatlarni ochish, takomillashtirish, ijobiy ta‘sir o‘tkazuvchi omillar va vositalar topish, ya‘ni ularning jamiyat ehtiyoji talabi hamda rivojlanish imkoniyatiga mos ravishda maqsadga yo‘naltirish lozim.

Xullas, jamiyatimiz intellektual salohiyatini rivojlantirish va yanada yuksaltirish vositalari sifatida ko‘rib chiqilgan omillar doimo o‘zgarishda va takomillashuvda bo‘lib, ularning barchasi intelligensiyaning vorisiylik tamoyili asosida vujudga keladi hamda ravnaq topadi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги нутқи. Тошкент, 2016 йил 14 декабрь.
2. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, катъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 45.
3. Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг 2017-2021 йилларга мўлжалланган ҳаракатлар стратегияси. Халқ сўзи., 2017 йил 8 февраль.
4. Акмалжонович, К. Ж. (2022). Роль философского образования в формировании интеллектуальной культуры у будущих педагогов. Журнал позитивной школьной психологии, 6(11), 1366-1371.